

## Hashardagi hayajon

Saranjom sarishtalikka nima yetsin. Tozalik chor atrofga ham, inson qalbiga go'zallik baxsh etadi. Buni birgalikda amalga oshirilishi ham go'zal harakat. Odatda, buni birgalikdagi ko'mak, o'zaro yordam, boshqacha aytganda, hashar elga yarashar deymiz. Institut yoshlar ittifoqi faollari Toshkent shahar Shayxontoxur tumanida joylashgan Suzukota ziyoratgohi mas'ullari taklifiga binoan hashar o'tkazish uchun tashrif buyurishdi. Hasharga yoshlar ittifoqi faoli 2 - bosqich magistri Hazratqulov Islom va fakultet yoshlar yetakchilari boshchilik qilishdi. Belgilangan hududlar obodonlashtirildi va tozalandi. Ziyoratgoh ma'muriyati institut rahbariyati va talabalarga minnatdorchilik bildirishdi.



**Yoshlar ittifoqi institut boshlang'ich tashkiloti ma'lumoti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**